

2022-yilning yanvar-iyun oyida Farg'ona viloyatida Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

115,4 %

O'sish sur'ati

10212,3 mlrd.
so'm

Xizmatlar hajmi

63,5 %

Kichik
tadbirkorlikning
ulushi

Xizmatlar sohasi

2 609,4
ming so'm

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

Farg'ona viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 212,3 mlrd.** so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1964,8 mlrd.** so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2022-yil yanvar-iyun oyida)

1964,8
mlrd. so'mga

Hajmning
o'sishi

10212,3
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

115,4%

O'sish sur'ati



3

Farg'ona viloyati xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022-yilning yanvar-iyun oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	10 212,3	115,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	539,7	123,6
Moliyaviy xizmatlar	2 400,7	165,9
Transport xizmatlari	1 849,1	105,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 705,6	103,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	248,9	104,2
Savdo xizmatlari	2 960,5	100,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	255,0	108,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	490,7	112,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	210,6	104,6
Ijara xizmatlari	209,1	101,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	274,5	105,9
Shaxsiy xizmatlar	463,9	102,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	95,8	111,4
Boshqa xizmatlar	213,8	104,3




Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



Jamiga nisbatan yuqori ulushga ega savdo xizmatlari (**29,0%**), transport xizmatlari (**18,1%**), shuningdek, moliyaviy xizmatlar (**23,5%**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**5,3%**) qayd etildi.




5 Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyun oyida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, % da

2022-yil yanvar-iyun oyida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1849,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1705,6 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,2 %ni tashkil etadi.



Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022-yilning yanvar-iyun oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,9%**ni tashkil etdi, bu esa 2960,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilda ularning hajmi 2645,2 mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **30,2 %**iga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari

2645,2

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

2960,5

110,6

O'sish sur'ati, %da

100,2



2021-y. yanvar-iyun



2022-y. yanvar-iyun

7

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022-yilning yanvar-iyun oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **2400,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning hajmi **1439,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,5** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilda ularning ulushi **17,5** %ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **961,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **165,9** %ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022-yilning yanvar-iyun oyida)

2022-yilning yanvar-iyun oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi **539,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2021-yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **123,6** %ga yetdi.



Taqqoslash uchun: 2021-yilda ushbu xizmat turi hajmi 428,7 mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,2** %ga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **116,0** %ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

490,7
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

403,3
mlrd. so'm

2022-y.
yanvar-
iyun



2021-y.
yanvar-
iyun

2022-yilning yanvar-iyun oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **490,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,8** %ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan **112,7** %ni tashkil etdi.

112,7 %

2021-yilga nisbatan
%da

113,8%

10

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

210,5

248,9

2021-y.

yanvar-
iyun

2022-y.

2021-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 38,4 mlrd. so'mga ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-iyun

2021-y.

180,4 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2022-y.

210,6 mlrd.
so'm

2,2 %

Xizmatlar-
ning jami
hajmidagi
ulushi

2,1 %

12

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022-yilning yanvar-iyun oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	10 212,3	115,4
Farg'ona sh.	3 259,8	118,9
Qo'qon sh.	1 903,3	116,2
Quvasoy sh.	194,0	112,6
Marg'ilon sh.	939,2	115,4
Oltiariq t.	370,7	115,5
Qo'shtepa t.	214,6	111,8
Bag'dod t.	220,7	112,7
Buvayda t.	345,0	111,7
Beshariq t.	240,1	114,2
Quva t.	287,1	115,6
Uchko'prik t.	363,2	103,4
Rishton t.	284,4	115,5
So'x t.	131,9	112,6
Toshloq t.	291,9	113,1
O'zbekiston t.	224,2	115,4
Farg'ona t.	331,6	112,2
Dang'ara t.	206,3	115,5
Furqat t.	157,5	111,1
Yozyovon t.	246,8	109,6

) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

13

**Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2022-yil yanvar-iyun oyida

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2609,4 ming
so'm

Hajmning o'sishi

459,5 ming
so'm

2022-yilning yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2609,4** ming so'mga yetdi.

2021-yilga nisbatan **113,1** %ni tashkil etdi.

113,1 %

O'sish sur'ati

Taqqoslash uchun:

2021-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2149,9 ming so'mni tashkil etdi.

14

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil yanvar-iyun oyida